

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aqliy, axloqiy va madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda aksiologik yondashuv, ya'ni qadriyatlar tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tez o'zgarayotgan va global o'zaro bog'liqlik bilan ajralib turadigan davrda o'qituvchilar ta'limida aksiologik tamoyillarni birlashtirish mas'uliyatli, ziyrak va qadriyatlarga asoslangan o'qituvchilarni tarbiyalash uchun juda muhimdir. Ushbu maqola pedagogika doirasida aksiologiyaning nazariy asoslarini o'rganadi, uning boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida dolzarbligini ta'kidlaydi va o'quv rejasi hamda ta'limga qadriyatlar ta'limini kiritishning amaliy yondashuvlarini tahlil qiladi. Maqolada adabiyotlar va pedagogik modellarni har tomonlama ko'rib chiqish orqali boshlang'ich ta'lim uchun har tomonlama barkamol, ijtimoiy ongli pedagoglarni tarbiyalash uchun tizimli aksiologik asos zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, aksiologik yondashuv, pedagogik qadriyatlar, axloqiy ta'lim, o'qitish tizimi, pedagogik faoliyat.

ЗНАЧЕНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В формировании умственных, нравственных и культурных навыков учителей начальных классов решающую роль играет аксиологический подход, т. е. система ценностей. Интеграция аксиологических принципов в педагогическое образование в эпоху, характеризующуюся быстро меняющимися глобальными взаимозависимостями, имеет решающее значение для воспитания ответственных, проницательных и основанных на ценностях учителей. В данной статье рассматриваются теоретические основы аксиологии в рамках педагогики, подчеркивается ее актуальность в программах подготовки учителей начального образования и анализируется учебный план, а также практические подходы к внедрению ценностного воспитания в образование. В статье подчеркивается необходимость системной аксиологической основы для воспитания разносторонне компетентных, социально сознательных педагогов начального образования посредством всестороннего обзора литературы и педагогических моделей.

Ключевые слова: начальное образование, аксиологический подход, педагогические ценности, нравственное воспитание, система обучения, педагогическая деятельность.

THE IMPORTANCE OF AN AXIOLOGICAL APPROACH TO THE PREPARATION OF TEACHERS OF PRIMARY EDUCATION FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY

Abstract. An axiological approach, a system of values, plays a crucial role in the formation of moral, intellectual and cultural competencies of primary school teachers. In an era of rapid change and global interconnectedness, the integration of axiological principles in teacher education is crucial for the education of responsible, empathetic and value-based teachers. This article examines the theoretical foundations of axiology within pedagogy, highlights its relevance in primary school teacher training programs, and analyzes practical approaches to introducing values education into the curriculum and education. The article emphasizes the need for a systematic axiological framework for the education of comprehensively competent, socially

188 *conscious teachers for primary school education through a comprehensive review of literature and pedagogical models.*

Key words: *primary education, axiological approach, pedagogical values, moral education, teaching system, pedagogical activity.*

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimining rivojlanishida asosiy yo'nalishlardan biri-qadriyatli yondashuvga e'tibor kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta'lim sohasida turli xil kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir imkoniyatlarning to'laqonli ta'minlanishi, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati kabilar belgilab qo'yilgan. Aksiologik yondashuvga yo'nalganlik qarashlarning asosli tizimlari, an'anaviy va innovatsion jarayonlarning qadriyatli asoslarini birlashtirishni talab etadi. Ana shu sababdan pedagogik hodisalarni o'rganishda aksiologik yondashuvning tarixiy ildizlarini, shakllanish va rivojlanish omillarini hamda mazmun-mohiyatini to'la anglab olish o'ta muhimdir. Aksiologik muammolar bilan miloddan avvalgi VI-V asrlardayoq qadimgi yunon olimlari - Geraklit, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Aristotellar shug'ullana boshlashgan. Ular asosiy aksiologik savollarni shakllantirishga harakat qilganlar: Oliy baxtga qanday erishish mumkin? Hayot mazmuni nimada? Haqiqat hayotda mavjudmi? Go'zallik nima?(1) Bu savollarga javob izlash jarayonida inson hayot go'zalligi, ta'lim-tarbiyaning hal qiluvchi kuchi, pedagoglarning mamlakat rivojida o'rni haqida bilib olishgan. Qadimgi va o'rta asrlarda shakllangan an'analar Sharq uyg'onish davriga kelib, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ldi. Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Alisher Navoiylar inson hayoti, uning ta'lim va tarbiya olishi muhimligini o'z asarlarida ko'rsatib berish orqali pedagogik aksiologiyaning tamal toshini qo'yganlar. Uzoq vaqtlar nazariy-pedagogik masalalar mustaqil tadqiqot sohasi sifatida emas, falsafa doirasida qarab kelingan. Biroq Sharq mutafakkirlarining g'oyalari ta'lim, tarbiya, ta'lim metodikasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, pedagogik fikrlar rivojida hal qiluvchi rol o'ynagan. Misol uchun, X asrda Al-Xorazmiy tomonidan qo'llanilgan tushuntirishda muntazamlilik, ketma-ketlik tamoyili XIX asr oxirida Abdulla Avloniyning pedagogik asarlarida yangidan ma'no kasb etgan. Shaxsga yo'naltirilgan qadriyatli bilimlar ikki jihatga qaratilgan: ichki - shaxsiy muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida (Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy) va tashqi - o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini takomillashtirish vositasi sifatida (Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulloh Barhaqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni Xojagon, Bahouddin Naqshband). Ta'lim va tarbiyadagi muammolar qaytadan ko'rib chiqila boshlandi va ularni hal qilishning yangi yo'llari izlab topildi. Insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lgan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar o'zgardi. Ustoz va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlar o'zgardi; faollik, o'rganish jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyati qadriyat sifatida o'sib bordi. Ta'lim oluvchining bilishga qiziqishini shakllantirish g'oyasi rivojlandi. Mazkur davrda pedagogik g'oyalar markazida bolaning individual rivojlanishi qo'yilsa-da, biroq shaxs jamiyatga qarama-qarshi qo'yilmagan. Bu bilan bog'liqlikda ta'lim ijtimoiy taraqqiyot sharti tarzida belgilangan. Buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek ham bu borada o'z fikrini yoritib, "Bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir", degan fikrni ilgari surgan va ta'limning aksiologik qadriyat sifatidagi maqomini aniq belgilab bergan edi. Keyinchalik ma'rifatparvar pedagog olimlar- Zavqiy, Avaz O'tar, Dilshodi Barno, Furqat kabi ijodkorlarning asarlarida, jadid pedagog olimlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik qarashlarida ta'limning davlat va jamiyat rivojida integratsiyasi ochib berilgan.

Chet el falsafasida esa qadriyatlar tabiatini tahlil qilishga yondashuvlarni umumlashtirish asosida M.A.Kisel qadriyatning manbaiga asoslanib, ularni ehtiyojli, ideal turmush, oliy qadriyatli voqelik, ichki bilishga asoslangan qadriyatlar tarzida tasnif etadi. Qadriyatli tasnifda qadriyatlarning rivojlanib borishi turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Faqatgina umumiy aksiologiyadagi barcha murakkab qadriyatli tizimlar real ta'limiy muammolarni hal etish bilan

bevosita o'zaro aloqador, deb ta'kidlash to'g'ri bo'lmaydi. Bir paytning o'zida o'zaro aloqadorlik ham ma'lum bo'ladi va u ko'p jihatdan ta'lim falsafasiga asoslanadi. "Ta'lim falsafasi" atamasi ham turlicha talqin etiladi. Britaniyada nashr etilgan ensiklopediyada ta'lim falsafasiga ta'lim mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga doir muammolar bilan shug'ullanuvchi bilim sohasi; ta'limning falsafiy nazariyasi sifatida ta'limning rivojlanish masalalarini ko'rib chiquvchi turli yo'nalishlar yig'indisi sifatida ta'rif beriladi. Ta'lim falsafasining alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida ajralib chiqishi XX asming 40-yillarida Kolumbiya universitetida falsafa va pedagogika nazariyasi sohasi mutaxassislarining ilmiy jamiyatining yaratilishi bilan bog'liqdir. Uning faoliyat maqsadi sifatida ta'limning falsafiy muammolarini tadqiq etish, ta'limiy dasturlarni falsafiy tahlil qilish, o'quv kurslarini ishlab chiqish va o'rta maxsus va universitetlar uchun kadrlar tayyorlash aks etadi. Ta'lim falsafasi tarixi tushunchasi XX asming 60-yillarida R.Piters tomonidan ta'lim asosi sifatidagi asosiy manbalarga asoslanib qabul qilindi.

Pedagogik aksiologiyaga oid adabiyotlarda pedagogik qadriyatlarning xilma-xil tasniflari mavjuddir. Jumladan, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o'quvchilar va ota-onalarning ta'lim muassasasini tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o'quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;

3) axloqiy qadriyatlar: o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyekti bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqalar mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o'qituvchi tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, o'quvchilar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat.

Hozirgi vaqtda ta'lim falsafasi deganda, ta'limning qadriyatli mohiyatli qismi, uning rivojlanish qonuniyatlari va vazifalarini ochib beradigan falsafiy bilimlar sohasi tushuniladi. U G'arbiy Yevropa mamlakatlarida muhim o'rin egallaydi va ta'limiy qadriyatlarni umumiy qadriyatlar bilan taqqoslash asosida ta'limni asoslashga turlicha yondashuvni amalga oshiradigan qator yo'nalishlar (empirik-analitik, gumanitar, dialogli)ni o'z ichiga qamrab oladi. Ta'limiy qadriyatlar sifatida aql-zakovat, bilimdonlik ajratib ko'rsatiladi. Masalan, boshlang'ich ta'limda katta e'tibor o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilishi kerakligini ta'kidlashadi. O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi. Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida tadqiq etilgan:

- o'qituvchiga uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos jihatlari;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi.

Ta'limiy qadriyatlarning maqsadi nafaqat erkin, balki mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdan ham iboratdir. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari yuqori professionallikni talab qiladigan va hali katta talabga ega bo'lgan tarbiyalovchi kasbni ifodalovchi mutaxassislardir. Zamonaviy jamiyat bugungi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitda yosh avlodni ijtimoiylashtirish masalalarini hal qilish uchun yuqori malakali ijtimoiy pedagoglarga muhtoj. Bo'lajak ijtimoiy pedagoglar o'zlarining kasbiy saviyasini anglash orqali kasbni o'zlashtirib, kasbiy mahoratini oshiradilar, bu esa mamlakat rivojlanishiga turtki beradi. Mukammallik va zarur kompetensiyalar bakalavr bosqichida shakllanadi. Rossiya va Qozog'istonning bir guruh olimlari pedagog kadrlar tayyorlash tizimlarida kelajakdagi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy shakllanishining

190 xususiyatlarini o'rgandilar. Tadqiqot usullari tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sintez, tarixiy va pedagogik qayta qurishdir. Kasbiy shakllanishning o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslash ijtimoiy pedagoglar tayyorlashning umumiy tarixiy o'tmish bilan belgilanadigan umumiy muammolarini, ta'lim tizimini rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'xshashligini ko'rsatganligini tadqiq etishdi. Aniqlangan farqlar kelajakdagi boshlang'ich ta'lim pedagoglarini tayyorlashni takomillashtirish yo'llarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyati o'qitish jarayonining bir qismi sifatida ijtimoiy kompetensiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga e'tibor qaratish bilan belgilanadi. Mualliflarning fikricha, aksiologik yondashuvning metodologik tamoyillari asosida mutaxassislar tayyorlash bo'lajak boshlang'ich ta'lim pedagoglarining o'z ta'limiga ham, kasbiy rivojlanishiga ham ongli munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda aksiologik yondashuvning metodologik tamoyillarini kengaytirish, qadriyatlarga tayanish hamda jahon ta'limining ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 24-sentabr, 202 (7704-son.)
2. Mardonov Sh. Pedagogik aksiologiya. "Fan va texnologiyalar", Toshkent-2003, 43-b, 143-b
3. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. T. "Fan va texnologiya", 2011
4. Boltayev A. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish (avtoreferat) Nukus-2025.
5. Alikulova M. Aksiologik yondashuv asosida talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogik tadqiqotlar jurnali №2, Noyabr, 2024